Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

XX asrning 20–30-yillarida Adabiyot sohasidagi jarayonlarga ma’muriy buyruqbozlik tizimining ta’siri

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov*
Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani 2-IDUM direktori
✉ isomiddinovzohidjon221@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda adabiyot sohasida kechgan jarayonlar va ularga ma’muriy-buyruqbozlik tizimining ta’siri tahlil qilinadi. Mazkur davrda sovet hokimiyati tomonidan adabiyot va san’atning partiyaviy mafkuraga bo‘ysundirilishi, ijodkorlarning faoliyati ustidan siyosiy va mafkuraviy nazoratning kuchayishi hamda “sotsialistik realizm” tamoyilining asosiy ijodiy usul sifatida qaror topishi yoritilgan. Maqolada Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Elbek kabi milliy ziyolilarning ta’qib va qatag‘onlarga uchrashi, milliy adabiy meros va tarixiy xotiraga bo‘lgan munosabat ham tahlil qilinadi. Shu bilan birga, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda va boshqa ijodkorlarning adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar

ma’muriy-buyruqbozlik tizimi, sovet mafkurasi, o‘zbek adabiyoti, XX asrning 20–30-yillari, sotsialistik realizm, proletar adabiyoti, “Qizil qalam”, ijodkor ziyolilar, milliy adabiyot, adabiy meros, qatag‘on, milliy qadriyatlar, adabiy jarayon.

DOI: 10.5281/zenodo.23281710

KIRISH

Sovetlar hokimiyatga kelgan dastlabki yillardan adabiyot, san’at va teatr yo‘nalishlari madaniyatning boshqa barcha sohalari kabi partiyaviylik bo‘ysundirilib, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilgan. Bunda bolsheviklar yetakchisi Lenin ta’limotida belgilanganidek, “madaniyat, adabiyot, san’at tarixini ilg’or ijtimoiy harakatlar tarixi bilan ozodlik kurashi bilan bog’langan holda o‘rganmoq, san’atkor ijodining va asarlarining ahamiyatini o‘rganish davr ilg’or kuchlarining ozodlik harakatlariga qay darajada yaqinlashishiga qarab belgilangan sinfiylik asosida rivojlanishi kerak bo‘lgan”[1]. Shu boisda XX asrning 20–30-yillarida o‘zbek adabiyotiga hukmron kommunistik partiyaning manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan “sotsialistik realizm” nihoyatda salbiy ta’sir ko‘rsatib, ijodkor ziyolilarni boy madaniy merosni hisobga olmasdan “proletar baynalminalchiligi”ning tor andozalari asosida asarlar yaratishga majbur etgan[1]. Buning natijasida adabiyot va san’at milliy zamindan ajratilib, turli yod unsurlar doirasida o‘ralashib qolgan.

Sovet rahbariyati o‘z manfaatlariga xizmat qiladigan, mahalliy “proletar” yo‘nalishidagi yozuvchilar tashkilotlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan. Ularning orasida 1926-yil avgustda Samarqandda Shokir Sulaymon raisligida tashkil etilgan “Qizil qalam” adabiy uyushmasi ham bo‘lib, uning a’zolari “badiiy adabiyotda proletariat mafkurasi gegemonligini ta’minlash sohasida” faol ishlarni olib borgan. Jamiyat faoliyatida Otajon Hoshim, Botu, Ziyo Said, Sotti Husayn, Oltoy, Anqaboy, shuningdek, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Mirtemir, Oydin kabi o‘z davrining yosh ijodkorlari ishtirok etgan. O‘sha yilning oxirida jamiyatning Farg‘ona va Namangan viloyat bo‘limlari ochilgan. Jamiyatning asosiy maqsadi Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari “keksa” avlod vakillaridan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda barpo etilayotgan yangi tuzumga xayrixoh ijodkor yoshlarni o‘z atrofiga to‘plash va ularni tarbiyalash bo‘lgan. Mazkur jamiyat Ozarbayjon va Tataristondagi shu nomdagi

1

jamiyatlari hamda VAPP (Butun Rossiya proletar yozuvchilari uyushmasi) bilan ijodiy aloqada bo‘lgan. 1930-yilda Botu, Ramziy (Mannon Romiz) va Oltoyning qamoqqa olinishi bilan jamiyat tugatilib, uning o‘rniga O‘zbekiston proletar yozuvchilar assotsiatsiyasi tashkil etilgan.

Shunigdek, 1927-yili Toshkent shahrida “Yosh leninchi” gazetasi huzurida tashkil etilgan yosh yozuvchilar to‘garagi ham o‘z a’zolarini kommunistik dunyoqarash ruhida tarbiyalash yuzasidan muayyan tadbirlarni amalga oshirgan.

“Qizil qalam” jamiyatining o‘riniga tuzilgan proletar yozuvchilar assotsiatsiyasi o‘ta ekstremistik pozitsiyada turib, o‘tmish milliy madaniyatini qat’iyan rad etish yo‘lini tutgan. U tor sinfiy yondashuv asosidagi markscha yo‘l-yo‘riqlarga amal qilib, mumtoz adabiyotni hukmdorlarga hamdu sano o‘qiydigan va aholini mistik tarzda ulug‘laydigan san’atdan iborat, deb qoralagan. Madaniyatning milliy o‘ziga xosligi “madaniy inqilob” rivojlanishiga, yagona sotsialistik madaniyatning shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligidan xavfsirash yuzaga kelgan.

Kommunistik partiya va sovet organlari ham ma’muriy qatag‘on qilish usullarini moddiy xizmat, ijodiy rag‘batlantirish usullari bilan birga qo‘shib olib borib, milliy ziyolilarning saflarini tarqoq holga keltirdilar va hatto ularning bir qismini boshqalariga qarshi ham qo‘ygan. Masalan, O.Hoshim partiya tomonida turib, jadidlar harakati va adabiyotini qoralab chiqdi va jadid adabiyoti o‘zbek burjuaziyasining adabiyoti deb ta’kidlagan. “Jadid adabiyoti o‘zbek burjuaziyasining fikrini va uning boshidan kechirgan holatlarini aks ettiradir, uning uchun ishlaydir, yig‘laydir”[2]. Olim Sharofiddinov, Cho‘lpon, J.Boybo‘latov, Fitrat, Sotti Xusayn esa A.Qodiriy ijodidan zamonga mos kelmaydigan “aksilinqilobiy yondoshuv” qidirgan. Ularning safida O.Hoshim va yosh Oybek ham bo‘lgan[3]. Hayratli tomoni shundaki, siyosiy tuzumga xizmat qilgan yuqoridagi “tanqidchilar”ning o‘zilari ham, Oybekdan tashqari, 1937-yilgi qatog‘anda qurbon bo‘lgan. Avval erk, ozodlikni kuylagan Cho‘lponning o‘zida ham keyinchalik “zamonasozlik mayllari ko‘ringan”[3].

Millatning talantli adiblari qatag’onga uchraganlaridan so‘ng “proletar adiblari” “stanokdan adabiyotga” shiorini o‘rtaga tashlab ishchilardan yozuvchilar yasay boshlagan. Lekin, ulardan birortasi ham “adabiyotda yashab qolmagan[3]”. “O‘jar” yozuvchi va shoirlarga nisbatan siquvlar ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, 30-yillar boshida Fitrat adabiy ijodda o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolarni ikki marta ko‘pchilik oldida tan olishga majbur etilgan. U 1931-yil 17-fevralda O‘zbekiston KP(b) MQ va “Qizil O‘zbekiston” gazetasi tahririyatiga yo‘llagan arizasida jumladan shunday yozgan edi: “Men o‘zim tomonimdan millatchilik ruhida yozilgan asarlar bugungi kun uchun zararli va butunlay yaroqsizligini tushundim... Takror aytamanki, men o‘zim o‘tmishim bilan, millatchilik bilan mustahkam bog‘liq bo‘lganman. Endilikda millatchilikni zararli deb hisoblayman. Sovetlardan chetda qolishni, betaraflik ko‘rsatishni o‘zim uchun sharmandalik deb bilaman”[4].

Sobiq Ittifoq siyosiy rahbariyatining partiya tevaragiga badiiy ziyolilarni jipslashtirish g‘oyasi VKP(b) MQ ning 1932-yil 23-apreldagi “Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish to‘g‘risida”gi qarorida[5] o‘z ifodasini topgan. Unda proletar adabiy-badiiy tashkilotlari badiiy ijodning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgani ular sovet yozuvchilari va rassomlarini sotsialistik qurilish vazifalari tevaragiga ko‘proq safarbar qilish vositasidan to‘garak biqiqligini targ‘ib etish, hozirgi zamonning siyosiy vazifalaridan ajralib qolish vositasiga aylantirish xavfini tug‘dirayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Natijada, proletar yozuvchilar assotsiatsiyasi tugatilib sovet hokimiyati siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi yozuvchilarning yagona uyushmasini tashkil etish, undagi kommunistik fraksiya bilan ishtirok etishga intiluvchi[6] barcha yozuvchilarni birlashtirishga qaror qilingan.

1934-yil martida O‘zbekiston yozuvchilarining I s’yezdi bo‘lib, unda sotsialistik realizm usuli sovet adabiyotining birdan-bir usuli sifatida e’tirof etilgan. Bunga rozi bo‘lmaganlar “reaksion antisovet unsurlar” sifatida qattiq tanqid qilinib, turli bosimlarga uchragan. Anjuman adiblarni sotsialistik jamiyatga munosib g‘oyaviy asarlar yaratishga, shu tariqa “sotsialistik tipdagi shaxsni shakllantirishga” chaqirgan[7].

O‘sha davrda “yagona sotsialistik madaniyat”, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalminal madaniyat” konsepsiyasi vujudga keldi va u keyingi yillarda hukmron g‘oyaga aylandi. U milliy madaniyatlarni imperiyacha tarzda tenglashtirishga, ularning etnik o‘ziga xosligini yo‘qotishga qaratilgan. Mazkur g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish maqsadida xilma-xil vositalardan foydalanildi. Xususan, 30-yillarning boshlaridan o‘quv yurtlarining barcha o‘quv rejalari va dasturlariga mahalliy materiallar kiritilmadi, asosiy o‘rganiladigan fanlar qatoridan Vatan tarixi, geografiya va o‘lka tabiatini o‘rganish chiqarib tashlandi, o‘zbek

xalqining buyuk o‘tmishi buzilgan tarzda talqin etildi. Bularning hammasi tarixiy xotiraga g‘oyat salbiy ta’sir ko‘rsatdi, tarixiy zamonlar va davrlar o‘rtasidagi tadrijiy bog‘liqlikning susayishiga olib keldi. Yosh avlodlar o‘z millatining chinakam tarixidan, adabiyotidan tobora uzoqlashtirilgan[8].

Milliy o‘z-o‘zini anglash, maishiy turmush, oila, hayot tarzi sohalaridagi xalqning diniy an’analari va urf-odatlari singari yetakchi qadriyatlarga qarshi keskin kurash avj oldirilgan. Bularning o‘rniga sun’iy ravishda o‘ylab topilgan sovet-baynalminar marosimlari singdirildi, “inqilobiy” ramzlar, xalqqa yot “sotsialistik” urf-odatlar joriy etilgan.

Shuningdek, xalqning azaliy qadriyatlari hisoblangan o‘z qarindosh-urug‘larining kimligini bilmaydigan manqurtlarni tarbiyalashning imperiyacha vositasi sifatida til siyosati maydonga chiqqan. Respublikada rus tilining davlat tili darajasiga ko‘tarilishi o‘zbek tilining kamsitilishiga, unga ikkinchi darajadagi til sifatida qarashga olib keldi. Natijada, o‘zbek tili, butun milliy madaniyat singari, sovet muhitiga qo‘shilib, o‘zining milliy ohori va o‘ziga xosligini yo‘qotish havfi ostida qolgan. 12 mingdan ortiq tabiiy ob’ektlar va manzillarning jug‘rofiy nomlari o‘zbek tilining faol lug‘ati tarkibidan chiqib ketgan[9].

1934-yilning avgustida Moskvada sovet yozuvchilarining I Butunittifoq s’yezdi bo‘lib o‘tgan va unda partiya ko‘rsatmasiga muvofiq sotsialistik realizmga, sovet badiiy adabiyoti va adabiy tanqidning usuli sifatida ta’riflab berilgan. S’yezdda O‘zbekistondan 16 delegat jumladan R.Majidiy, S.Ayniy, G’ayratiy, G’.G’ulom, M.Alekseev, U.Ismoilov, K.Yashin, Z.Said, N.Safarov, H.Shams, H.Po‘lat kabi taniqli kishilar ishtirok etgan.

O‘zbekiston adabiyotida G’.G’ulom, Oybek, A.Qahhor, S.Abdulla, M.Shayxzoda, Oydin va boshqa ijodkorlar samarali mehnat qilib badiiy ijodning yangi yo‘nalishlarini kashf qilgan. O‘sha yillarda Hamid Olimjon, Mirtemir, U.Nosir, Nazir Safarov, Ziyo Said, Zafar Diyor, Zulfiya kabi shoir va dramaturglarning yangi avlodi adabiyotga kirib keldi. Yosh shoir va yozuvchilar o‘zbek adabiyotini yangi hayotni, davr kishisini ulug‘lovchi asarlar bilan boyitgan. Shu bilan birga sotsialistik realizmning qusurlari ularning asarlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan[10].

O‘zbekiston XKS 1930-yilnnig 28-iyulida “O‘z SSR XKS huzurida matbuot ishlari qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” qaror nashriyot va matbuot, qog‘oz ishlab chiqarish sanoatini boshqarish va ularning faoliyatini yo‘naltirib borish, vazifalari yuklangan[11]. Natijada mamlakatda ommaviy axborot vositalarining soni ortib, jamiyat hayotini aks ettiradigan badiiy asarlar va maqolalar ko‘paygan. Masalan, O‘zbeksitonda 1930-yil 25 ta ro‘znoma bo‘lgan bo‘lsa, 1933-yilda ularnnig soni 187 taga yetgan. Ularning ko‘plari boshqa tillardagi xususan, rus, uyg‘ur, tojik, yahudiy va qozoq tillarida gazetalar edi[12].

Shuningdek, 1920–30-yillar o‘zbek adabiyoti vakillarining asarlari chop etilib borishi bilan birga, ularning maqola, ocherk, she’r va dostonlari o‘sha -yillarning bir qator jurnal va gazetalarida e’lon qilinar edi. Jumladan, “Maorif va o‘qituvchi”, “Sovet adabiyoti”, “Yer yuzi”, “O‘zbekiston adabiyoti va sa’nati”, “Alanga”, “Yosh kuch”, “Satsialistik fan va texnika”, “Kitob va inqilob”, “Qurilish”, “Ma’shala”, “Muxbirlar yo‘ldoshi”, “Literaturn Uzbekistan” va “Yangi yo‘l” kabi gazeta va jurnallar shular sirasiga kirgan.

Lekin shuni qayd etish joizki, ushbu OAV larda e’lon qilinadigan barcha materiallar sho‘rolar tizimining ushbu sohadagi maxsus odamlari tomonidan nazorat qilingan.

Shuningdek, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” kabi asarlarida o‘zbek xalqining dramatizmga to‘la o‘tmish hayotini yuksak badiiy saviyada aks ettirgan. Cho‘lponning hikoyalari, yirik adabiy asarlari o‘ziga xos syujeti, mazmuni va ijtimoiy konfliktlarni badiiy hal etishi bilan ajralib turgan. Uning “Kecha va kunduz” romanining birinchi qismi bosilib chiqib, unda o‘lka xalqlarining milliy-ozodlik uchun o‘ziga xos tarzda olib borgan murakkab kurash yo‘li tasvirlangan.

Shu bilan birga Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida mustamlaka Turkistondagi 1916-yilgi tarixiy voqealar, ya’ni o‘zbek xalqining chor imperiyasi zulmiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakati yorqin aks ettirilgan. Yozuvchining o‘zi mardikorlikka olishga nisbatan xalq g‘azabini quyidagicha ta’riflagan edi: “Bu xalq isyoni edi, qullikka qarshi, turma va kishanlarga asoslangan tuzumga qarshi, bosh turmachi bo‘lgan Nikolay hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon edi, bu unga berilgan qaqshatqich zarba edi”.

XX asrning 30-yillarda yirik asarlar Abdulla Qahhorning “Sarob”, Husayn Shamsning “Dushman” romanlari, shuningdek, bir qator qissalar, ko‘plab hikoyalar, novellalar yaratilgan. Ular orasida Ibratning

“Bo‘lubdur”, “Manzuma”, “Ziyo”, G’afur G’ulomning “Netay”, “Yodgor”, “Qizillar”, “Kim aybdor”, “Yigit”, “Cho‘tir ayolning baxti”, “Shum bola”, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Anor”, “Maston”, “Bemor”, “Sevishganlar”, “Jonfig‘on”, “Nevara”, “Yillar”, “To‘y”, Oydin Sobirovaning “Cho‘pon”, “Yamoqchi ko‘chdi”, “Hazil”, “Kambag‘al”, “Bolalik uyda g‘iybat yo‘q”, “Gulsanam”, Husayn Shamsning “Radio”, “Norozi o‘spirin”, “Kelin keldi”, “Ota”, “So‘nggi ovozlar” kabi asarlari bor edi[13].

O‘zbek ijodkorlari o‘z asarlarida kishilarining qurilish va dalalarda, zavod va fabrikalarda o‘lka boyligiga boylik qo‘shish borasidagi fidokorona mehnatlarini, boylik va kambag‘allik, kuch va huquqsizlik, zo‘ravonlik va hurlik o‘rtasidagi o‘rta asrdagi kurashni, insonlarning ongi o‘sganligini, xalqning baxtli zamon qurishga bo‘lgan umid, orzularini tasvirlaganlar.

Cho‘lpon va Fitratning she’riy asarlari hayot tajribasi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, teran va dono fikrlari bilan alohida ajralib turgan. Chunonchi, ularning asarlarida o‘z mehnati bilan kun ko‘rayotgan zahmatkash o‘zbek kishilari, paxtakorlarining mehnat jasoratlari kuylangan[14].

Shoir Elbek “Tozagul” dostonida, “Qo‘shchi Turg‘un”, “Batrak Kulqo‘zi” she’rlarida qishloq xo‘jaligini zo‘rlik bilan jamoalashtirish siyosatini o‘tkazish davridagi dramatik voqealarni ko‘rsatib bergan.

Oybek “Fan uchun yurish”, “Muallim”, “Dala shiyponida”, “Brigadir ayol”, “O‘zbekiston”, «Na’matak» she’rlarida, «O‘ch», «Baxtigul va Sog‘indiq», «Temirchi Jo‘ra», «Dilbar davr qizi» poemalarida yangi hayot quruvchilarining mehnat g‘alabalarini, ozod o‘zbek ayolini sharaflagan va zolimlarga qarshi kurash manzaralarini aks ettirgan.

Hamid Olimjon «Biz yengdik», «Musobaqa», «Safarbar o‘lka», «Daryo tuni», «Baxt», «Chirchiq bo‘ylarida», «Baxtlar vodiysi», «Mahorat», «Olov sochlar», «Bahor» she’rlari, «Zaynab va Omon» sheriy dostonida xalqning ezgu fikr-o‘ylari, his-tuyg‘ularini ko‘tarinki ruhda ifodalab, xalqning yer yuzida adolat o‘rnatilishiga cheksiz ishonchini ochib bergan va “men uchun baxtni kuylashdan o‘zga baxt yo‘q”, degan edi.[15]

Shoir Maqsud Shayxzodaning qurilish miqyoslari va sur’atlari, kelajak yo‘lida mehnat qilayotgan zamondoshlar hayotining hamma tomonlari qiziqtirgan. Shoir ularga o‘zining “Uchinchi kitobi”, «Respublika», «Turmush daftaridan», «Er va huquq», «O‘n ikki», «Ikki devon» kabi she’rlarini bag‘ishlagan.

Mirtemirning «Yashil yaproqlar», «Farg‘ona», «Amudaryo sohillarida», «Mehnat uchrashuvda», «Kuz», «O‘ylar», «Mohitob», «Bog‘ ko‘cha», «Qorako‘z», «Lolazor», «Yali-yali» she’r va dostonlarida sovet davrining bunyodkorlik zavq-shavqi bilan to‘lib toshganligi yoritilgan.

1939-yil 23-25-aprelda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasining II respublika s’yezdi stalincha ma’naviy mustabidchilik zug‘umi zanjirining bamisoli bir halqasi bo‘ldi[6]. S’yezd ishtirokchilari “O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasining vazifalari to‘g‘risida”gi, “Alisher Navoiy ijodi to‘g‘risida”gi, “Adabiy meros muammosi va o‘zbek folklori to‘g‘risida”gi qarorlarni tingladi. Muhokama jarayonida respublika yozuvchilari tashkiloti oldiga “sinfiy hushyorlik”ni kuchaytirish, yozuvchilar saflarini marksizmning aqidaparastlik platformasi asosida mustahkam jipslashtirish, badiiy sohadagi fikr erkinligi elementlariga uzil-kesil barham berish, “feodal o‘tmish”ga ixlos qo‘yganlarga va “millatchilar”ga, ya’ni boy ma’naviy merosni avaylab saqlash, samarali milliy-insoniy an’nalarni saqlash uchun kurashuvchi ijodkor ziyolilar vakillariga qarshi keng kurash olib borish vazifa etib qo‘yilgan. Ayni vaqtda o‘zbek xalqining ma’anaviy-milliy boyliklaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun ittifoq siyosiy rahbariyati adabiy meros, o‘zbek folklori muammosini muhokama qilishga ruxsat etgan. Bu bilan u madaniy merosni ma’lum darajada targ‘ib etishga, o‘zbek xalqi folklorini ilmiy ishlab chiqishga ko‘maklashgan, biroq, u masalaga mafkuraviy yondoshishni talab etgan.

Shuningdek, 1930-yillarda jurnalistika sohasida nom qozongan ilg‘or ayollar Tojixon Shodieva, Sobira Xoldorova, Hosiyat Tillaxonova, Oydin Sobirova, Saodat Shamsievalar ham qatog‘on qurbonlari bo‘lgan. Shuningdek, bu davrdagi ommaviy qatag‘onar ko‘plab iste’dodli adib va san’at arboblarining taqdirida ayanchli iz qoldirgan. O‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy, shuningdek, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Shokir Sulaymon, Ramziy, Ziyo Said, G’ulom Zafariy, Elbek kabi milliy madaniyat darg‘alari nohaq qurbon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Долимов У. Исҳоқон Ибрат. –Т.: Шарқ, 1994. – 108-111-бетлар; Норбоев Б. Истиқлол ва истеъдод тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 8-12 бетлар.

2. Отажон Ҳошим. Жадид адабиёти тўғрисида // Қизил қалам. 2-китоб. – Т.: Ўздавнашр, 1929. – 16 б.

3.Шарафуддинов О. Маънавий камолот йўлларида. – Т.: Маънавият, 2001. – 152,195,178,177-бетлар.

4.“Қизил Ўзбекистон” 1931 yil 21 феврал.

5.О партийной и советской печати. Сборник документов. -М.: Госкомиздат, 1954.-С. 431

6.O’zbekiston Milliy arxivi 58-jamg’arma, 8-ro’yxat, 18-ish, 83-varaq, 14-ro’yxat, 166-ish, 77-varaq

7.Минуя капитализм (О переходе к социализму республик Средней Азии и Казахстан). – М.: 1961 – С.142; Валиев А.К. Октябрь, культура, интеллегенция. – Т.: 1977. – С. 26-27.

8.Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. -Т.: Шарқ, 2001. -93-б.

9. Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. В 4-х кн. Т.2. –Т.: Адолат, 1994. - С.41.

10.Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Т.: 1960. – 470-471 б.

11.O’zbekiston Milliy arxivi 837-jamg’arma, 8-ro’yxat, 35-ish, 8-varaq.

12.Эрназаров Т. Расцвет Народной печати в Узбекистане Т., “Ўзбекистон” 1968, с 129.

13.Долимов У. Исҳоқон Ибрат. –Т.: Шарқ, 1994. – 108 б.; Фурқат. Танланган асар. – Т.: 1980. – 78-79 бетлар; Ўзбек адабиёти. – Т.: 1968. – 30-42 бетлар.; Изларини излайман. – Т.: 1998. – 20-31 бетлар.

14.Шарофиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: Ёзувчи, 1994; Азиззода Лазиз, Чўлпон ким эди? // Ёшлик, 1988, 10-сон. – 7-11 бетлар.

15.Ўзбек адабиёти. – Т.: 1971. – 164 б.